



YOSHLAR SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA FAOLLIK, IJTIMOY MAS’ULIYAT VA KELAJAK SARI ISHONCH

Muallif: Davlyatova Sayyora Gulamovna ¹

Affiliyatsiya: Toshkent transport texnikumi “Hisob va biznes” kafedrası katta o‘qituvchisi, mudiri ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17569990>

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar bilan ishlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar, “Yoshlar bandligi” va “Kelajakka qadam” dasturi, “Yoshlar balansi”, “Yoshlar daftari” tizimlari va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning boshqa mexanizmlari tahlil qilingan hamda yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar raqamlarda o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar balansi, yoshlar bandligi, Yoshlar daftari, Besh tashabbus olimpiadasi, xorijiy tillar, zamonaviy kasblar va kitobxonlik loyihalari.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar jamiyatning eng dinamik, ijodkor va tashabbuskor qatlamidir. Ularning salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta‘minlash va shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish — har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. O‘zbekiston yoshlar siyosati ham aynan shu maqsadga xizmat qiladi: yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga zamin yaratish.

Yoshlar siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri — yosh avlodda ijtimoiy mas‘uliyat va fuqarolik ongini shakllantirishdir. Ta‘lim muassasalarida tashkil etilayotgan “Yoshlar klublari”, “Liderlik maktablari” va “Yoshlar parlamenti” kabi platformalar orqali ular jamiyat muammolariga befarq bo‘lmagan, tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalanmoqda. Davlat tomonidan yaratilgan “Yoshlar daftari”, “Yoshlar jamg‘armasi” va “Yoshlar startaplari” kabi mexanizmlar yoshlarning g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish imkonini bermoqda. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy faollikni kuchaytiradi va kelajak uchun mas‘uliyatni his qilishga undaydi.

Mamlakatimizda joriy yilning yanvar-sentabr oylari davomida 9,2 mln nafar yoshlarning “Yoshlar balansi” shakllantirilib, ularning individual muammolarini hal etish, qiziqish va iqtidorini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha aniq va manzilli ishlar tashkil etildi.

1. Yoshlar bandligini ta‘minlash borasida:

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishsiz va biznesini boshlash istagidagi 384,4 ming nafar yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Yoshlar bandligi dasturi” qabul qilinib, 277 ming (72 foiz) yoshlar bandligi ta‘minlandi. Xususan:

– davlat idoralarining 4 546 nafar rahbari 115,8 ming ishsiz yoshga biriktirilib, 114,9 ming nafari bandligi ta'minlandi;

– Aloqabank tomonidan “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida 8 155 ta loyihaga 984,4 mlrd so'm uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratilib, yaratilgan 10 829 ta yangi ish o'rniga ishsiz yoshlar joylashtirildi;

– Milliybank tomonidan “Kelajakka qadam” dasturi doirasida 22,2 ming bitiruvchilar ish o'rinlariga joylashtirildi hamda 3 227 nafar talabaning 134,3 mlrd so'mlik biznes loyihalari moliyalashtirildi;

– joriy yilning 21-23-may kunlari Toshkent shahridagi Talabalar shaharchasida 700 ta yirik ish beruvchi korxonalar va 50 ming nafar talabalar ishtirokida “Talaba Expo-2025” megaloyihasi tashkil etildi;

– oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 82,5 ming yoshlarga 2 440,8 mlrd so'm imtiyozli kredit ajratildi;

– “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 6,2 ming yoshlarga subsidiya ajratilib, o'zini o'zi band qilishiga ko'maklashildi;

– dehqonchilik uchun 2,5 ming yoshlarga 1,3 ming gektar ekin maydonlari ajratilib, bandligi ta'minlandi.

Mahallalarda 1,3 mln nafar shaxslarning *(417,6 mingi yoshlar)* “migratsiya balansi” shakllantirilib, “raqamli mahalla” platformasi orqali onlayn monitoring qilish tizimi joriy etildi.

Shuningdek, xorijda ishlash istagidagi 26,9 ming yoshlar yuqori maoshli korxonalarga xavfsiz va tartibli mehnat migratsiyasi tizimi orqali yuborildi.

Natijada 7 467 ta mahallalardan rahbarlarga biriktirilgan “og'ir” *(ishsiz)* toifadagi yoshlarning bandligi to'liq ta'minlandi. Bu ko'rsatkich 2024 yilga nisbatan 3,9 baravar ko'pdir. *(2024-yilda 1 889 ta mahalla)*.

2. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida:

Joriy yilda 10 ta toifada tarbiyasi og'ir 51 455 yoshlar 6 ta huquq-tartibot va mudofaa organlarining 4 155 nafar mas'ullariga otaliqqa berilib, ularni to'g'ri yo'lga solishga qaratilgan zarur choralar ko'rildi.

Yil boshidan 32 657 nafar tarbiyasi og'ir yoshlar sog'lomlashtirilib, hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashildi. Shu jumladan:

– otaliqqa olgan mas'ul “kafilligi” ostida xulqi ijobiy tomonga o'zgargan 6 279 nafar yoshlar muddatidan avval probatsiya va profilaktika hisobidan chiqarildi;

– mahalla raisi ishtirokida 4 469 nafar dars qoldiruvchilar ta'limga qaytib, 2 370 nafar yosh oila ajrimining oldi olindi;

– profilaktika inspektori bilan 651 nafar yosh giyohvandlik va “yot g'oyalar” ta'siridan qaytarilib, vatanparvarlik targ'iboti orqali 266 nafar yosh harbiy xizmatga yuborildi;

– 5 279 nafar yoshlarga ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko'rsatildi;

– hokim yordamchisi bilan 10 926 nafar yoshlar bandligi ta'minlanib, 1 967 nafari tartibli mehnat migratsiyasiga yuborildi;

– “Shijoat va g'ayrat” harbiy-sport musobaqalari o'tkazilishi yo'lga qo'yilib, 284 ming mahalla yoshlari jalb etildi;

– mahallalarda harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda harbiy qismlarda “Jasorat” harbiy yig'inlarini o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yilib, 14 388 nafar yoshlar harbiy xizmatga saralab olindi;

– jazoni ijro etish muassasalarida yosh mahkumlar bilan Yoshlar ishlari agentligi rahbarlarining uchrashuvi va muloqotlari tashkil etildi va JIEMdagi 9 102 nafar

yoshlarning 3 845 nafari kasb-hunarga, 1 392 nafari xorijiy tillarni o'rganishga, 8 071 nafari foydali mehnatga jalb etildi. Natijada, yoshlar jinoyati o'tgan davrda 18,8 foizga kamaydi va 5 147 ta mahalla "yoshlar jinoyatidan holi mahalla"ga aylandi.

3. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida:

Respublika bo'yicha tanlov, musobaqa va amaliy loyihalarda 15,4 mln yoshlar qamrab olindi. Jumladan:

– joriy yilning 1-25-may kunlari hududlar va oliygohlarda o'tkazilgan "TalabaFest-2025" festivalida 800 ming talabalar ishtirok etdi;

– Madaniyat va istirohat bog'lari, ochiq maydon va yoshlar saylgohlarida "DJ community" konsert-shou dasturlarini haftaning har shanba kunlari o'tkazish yo'lga qo'yilib, 2 mln yoshlar qamrab olindi;

– "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilgan tanlov va musobaqalarga 6,2 mln yoshlar ishtirok etdi (*tanlovlar davom etmoqda*).

Madaniyat-san'at – 708 ming, sport – 3.3 mln, kitobxonlik va intellektual o'yinlar – 2.2 mln.

– Mahalla, tuman, viloyatlarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishga qaratilgan "Dolzarb 90 kunlik" tadbirlari amalga oshirildi. Jumladan,

a) yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etadigan loyiha, tanlov va musobaqalar tashkil etilib, 7,2 mln yoshlar qamrab olindi;

b) iyul-avgust oylarida tashkil etilgan amfiteatr va saylgohlarda konsert va musiqa kechalari, madaniyat va istirohat bog'larida san'at ko'rgazmalari, she'riyat kechalari va intellektual o'yinlarda 975 ming yoshlar qamrab olindi;

d) "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" loyihasi o'tkazilib, 893 ming nafar yoshlarning muzey va tarixiy obidalarga ekskursiyasi tashkil etildi.

– xorijiy tillar, zamonaviy kasblar va kitobxonlik loyihalariga 6,5 mln yoshlar jalb etildi (*"Ibrat farzandlari" loyihasi – 2,6 mln, "Qizlar akademiyasi" loyihasi – 359 ming xotin-qizlar, "Ustoz Al" loyihasi – 657 ming yoshlar, "Mutolaa" loyihasi – 2,9 mln kitobxon*).

– xorijiy tillar bo'yicha xalqaro sertifikatga ega 12,9 ming yoshga 28,7 mlrd so'm imtihon topshirish xarajatlari qoplab berildi (*tizim joriy etilgandan buyon 51,9 ming yoshga 101 mlrd so'm*). Natijada birgina xalqaro "IELTS" imtihonidan 5,5 ball olgan yoshlar soni 2020-yilga nisbatan 5 baravarga, 7-8 ball olganlar 7,5 baravarga, 8,5-9 ballga erishganlar esa 24 baravarga oshdi.

XULOSA

Ishsiz va ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash choralari ko'rilishi, otaliqdagi yoshlar bilash ishlash davom ettirilishi, ularni kasbga yo'naltirish, sport, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari o'tkazilishi hamda yoshlar bilan individual shug'ullanib, muammolarini hal etish orqali sog'lomlashtirish choralari ko'rilishi natijasida yoshlar bilan ishlash samaradorligi yanada oshirish imkoniyatlari mavjud.

Yoshlar siyosati bu faqat hujjatlar to'plami emas, balki har bir yoshning hayotiga bevosita ta'sir etuvchi, uni rag'batlantiruvchi va jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashuvchi tizimdir. Bu siyosatni amaliy, interaktiv va ma'naviy-ma'rifiy yondashuvlar bilan boyitish esa pedagoglar, trenerlar va metodistlarning asosiy vazifasidir. Aynan shunday yondashuvlar orqali biz yoshlarni kelajak sari ishonch bilan yetaklaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'rayev A., Qodirov M. Yoshlar siyosati asoslari— Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2021. — 224 bet. O'zbekistonda yoshlar siyosatining huquqiy asoslari, amaliy mexanizmlari va tahliliy yondashuvlar.
2. Tursunov B. Yoshlar va jamiyat: ijtimoiy faollikni shakllantirish yo'llari — Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2020. — 198 bet. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, liderlik ko'nikmalari va fuqarolik pozitsiyasi haqida.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" — Rasmiy hujjat. Toshkent: Lex.uz, 2021. — 23-son qaror. Strategik maqsadlar, yo'nalishlar va amalga oshirish bosqichlari.
4. Yoshlar ishlari agentligi (tahrir hay'ati) Yoshlar siyosati: amaliyot va tajriba
5. — Toshkent: "Yangi O'zbekiston" nashriyoti, 2022. — 156 bet. Agentlik tomonidan amalga oshirilgan loyihalar, monitoring natijalari va tavsiyalar.
6. Jangibayev N. Yoshlar siyosati va uning ijtimoiy samaradorligi — Ilmiy maqola. ScienceWeb jurnalida chop etilgan. — 2023. — №2. — 45-52-betlar. Yoshlar siyosatining jamiyatdagi o'rni va natijaviylik tahlili.
7. <https://gov.uz/oz/yoshlar>
8. <https://yoshlarbalansi.uz>
9. <https://yoshlardaftari.uz>
10. <https://ibratfarzandlari.uz>
11. <https://mahalla.ijro.uz>

